

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 725 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB Olishda qo'llaniladigan qurilmani loyihalash	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
TEMIR YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FOND LARDAN VA ISHLAB CHI QARISH QU VVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHI QARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	
MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	398
Zufarova Zilola Rahim qizi	
RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI.....	403
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
АКТИВИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....	411
Жоллыбеков Хурмет Бахыт улы	



KORPORATIV MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA ETISH VA TA'MINLASHNING HUQUQIY-IQTISODIY SHAKLLARI	416
Rustamova Dilbar Rustamovna	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY Tajribalari	423
Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li	
METALLURGIK TEXNOGEN CHIQINDILARDAN KAMYOB METALLARNI AJRATIB Olish TEKNOLOGIYASI	427
Qayumov Oybek Azamat o'g'li, Ro'ziyev Ulug'bek Mamarasulovich, Abdullayev Farruh Odiljon o'g'li	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON SAVDONI TAKOMILLASHTIRISHDA XO'JALIK ALOQALARI LOGISTIKASI	434
Yakubov Maksadxan Sultaniyazovich, Jumaboev Behzod	
YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTISIYALARNI JALB QILISH	443
Raimjanova Madina Asrarovna	
O'ZBEKISTONDA ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	448
Azizova Roxila Baxodir qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATIDA INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	452
Isakova Naima Ikromjonovna	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIDA AJ "HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI	459
Bo'ranboyeva Shoira Rustamovna	
"QISHLOQ HUDUDLARIDA XOTIN-QIZLARNING BARQAROR TURMUSH TARZINI TA'MINLASHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING O'RNI VA AHAMIYATI"	466
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi, Niyozova Ruxsora	
SMART TOURISM KAK INSTRUMENT USTOYCHIBOYO RAZVITIYA TURISTSKIX REGIONOV: MEJDUHARODNYY OPIYT I REGIONALNAYA ADAPTIYATSIYA	471
Usmanova Aziza Bahodirovna	
XUFIYONA IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING TUTGAN O'RNI	477
Atamurodov To'liqin To'ymurodovich, Mamatkulov Salimjon Rahmonkulovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
IQTISODIYOTDA TURIZM O'RNINI STATISTIK TAHLILINING XALQARO STANDARTLARI VA TAJRIBALARI	482
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMIDA BANK KREDITLARINING O'RNI VA AHAMIYATI	489
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDAN MOLIYAVIY RESURLARNI JALB ETISHDA SUVEREN KREDIT REYTINGLARINING O'RNI	494
Mamadaliyev Poziljon Mansurjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLAR RIVOJLANISH HOLATI TAHLILI	500
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
MILLIY SANOAT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INSON KAPITALINING O'RNI	506
Yunusov Foziljon G'ulomqodirovich	
XONDIZA KONI POLIMETALL RUDALARINI FLOTATSIYALASHDA REAGENT REJIMINI TAKOMILLASHTIRISH	511
Shodiyev Abbas Ne'mat o'g'li, Egamberdiyev Baxtiyor Barat o'g'li	
EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARI BO'YICHA MUDDATI O'TGAN DEBITOR QARZDORLIKNI ANIQLASHDA RAQAMLI SOLIQ NAZORATI MONITORINGINING QO'LLANILISHI VA SAMARADORLIGI	517
Tashmuxeimedov Dilmurod Mirabzalovich	



SOLIQ SALOHİYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING TA'SIRI	522
Jurayev Xusan Atamuratovich	
IMPROVING MECHANISMS FOR ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS	528
Sobirov A. Abdurasul	
MINTAQADA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI	533
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
TECHNOLOGY-DRIVEN VISITOR MANAGEMENT SYSTEMS FOR ENHANCING MUSEUM EXPERIENCE AND PERFORMANCE	539
Ibroximova Aziza Abbasovna	
XALQARO MOLİYAVIY INSTITUTLARNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	545
Kurbonbekova Moxichexra Turobjonovna	
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATIDA "AQLLI KON" KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISH TAJRIBASI	551
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
INVESTITSIYA JARAYONLARINING HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA STRATEGIK TA'SIRI	556
Ibrohimov Behzodbek Baxromjon o'g'li	
SAMARQAND VILOYATI SAVDO KORXONALARI FAOLIYATINING TASHKILIY VA IQTISODIY XUSUSIYATLARI	562
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЕМ СТРЕЛКОВОГО СПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	568
Юсупов И.	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	573
Тарават Абдул-Салам	
MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI	581
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
MUQOBIL ENERGIYA VOSITALARINI JORIY ETISH HOLATINING STATISTIK TAHLILI	586
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li	
YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI	592
Qurbanova Muazzam Fazliddinovna	
MEHMONXONA SANOATIDA ESG TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI	596
Xusenova Mexrangiz	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIK ASOSIDA HUDUDLARNING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH	600
Amirova Dilshoda, Usmonova Shahrinoz Ilhom qizi	
MINTAQQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINING ROLINI EMPIRIK JIHATDAN TAHLILI	605
Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich	
NITROGEN FIXATION CHARACTERISTICS OF AZOLLA CAROLINIANA UNDER THE INFLUENCE OF HEAVY METAL (CR ⁶⁺)	610
Sh. Azimov, E. Egamberdiev, S. Turabdajanov	
EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI VA NORMATIV-HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING TA'SIRI	616
Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna	



«O'ZBEKNEFTGAZ» AKSIYADORLIK JAMIYATIDA «ESG» STANDARTLARINI JORIY ETISH	622
Ibragimova Saodat Abdumo'minovna, Xusainov Ravshan Raximovich	
O'ZBEKISTON SANOATINING HOZIRGI HOLATI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLARI DINAMIK TAHLILI	627
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH: KLASSIK VA ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLAR	634
Ugay Darya Sergeevna, Raxmonov Doniyor Ixtiyor o'gli, Mamanov Alisher Umbarovich	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'INING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING DINAMIK TAHLILI	642
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
KORXONALAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	647
Jamoliddinov Jobirbek Bohodir o'g'li	
KICHIK BIZNES SEKTOR FAOLIYATI IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA	652
Batirova Raxima Abdujabbarovna, Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
MINTAQALAR MIQYOSIDA FARMATSEVTIKA SANOATINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR MAQSADLARI HAMDA ULARNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	656
O'taganova Umida Egamberdi qizi	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	663
Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
MAHALLIY JUN TOLALARINING GEOMETRIK VA FIZIK-MEXANIK XOSSALARINI NOTO'QIMA MATOLAR ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI NUQTAI NAZARIDAN TADQIQ ETISH	667
Ermatov Shavkat Qulmatovich, Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
TADQIQOT DIZAYNINI ISHLAB CHIQISH JARAYONIDA GIPOTEZALARNI SHAKLLANTIRISH, O'ZGARUVCHILAR TIZIMINI TANLASH VA EKONOMETRIK IDENTIFIKATSIYA STRATEGIYASINI ASOSLASH	671
Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM XIZMATLARI BOZORI HOLATI VA UNING MUAMMOLARINI TAHLIL QILISH USULLARI	678
Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich	
O'ZBEKISTONDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AKSIYALARI NARXINI O'ZGARISHI TAHLILI	682
Ibragimov G'anjion G'ayratovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA IJTIMOY-IQTISODIY TIZIMLARNI SAMARALI BOSHQARISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	688
Alimov Fazliddin Xalimovich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI QUYMA DETALLARINING KIMYOVIY TARKIBI VA MEXANIK XOSSALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI TADQIQ ETISH	693
Tursunov Nodirjon Qayumjonovich, Saidraximov Azizjon Azim o'g'li, Nuriddinov Otabek Shuhrat o'g'li	
KAM QAVATLI TURAR-JOY BINOLARINI QURISHDA AN'ANAVIY QURILISH ASHYOLARIDAN FOYDALANISHNING IJOBIY TOMONLARI	702
Toshniyozov Otabek Hakimovich	
МИГРАЦИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА КАК ФАКТОР ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА	706
Аскарова М.Т.	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСОВОГО УЧЕТА В ЧАСТНОМ МЕДИЦИНСКОМ УЧРЕЖДЕНИИ	711
Алимджанова Юлдуз Азизовна	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASHNING BELGILOVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARI VA ULARNING NAZARIY AHAMIYATI	718
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASHNING BELGILOVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARI VA ULARNING NAZARIY AHAMIYATI

Mavrulov Ravshan Nematjonovich

Namangan Davlat texnika universiteti

"Iqtisodiyot kafedrası" dotsenti, PhD

E-mail: mavrulov1989@gmail.com

ORCID: 0009-0004-4940-5313

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes subyektlari bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tizimning eng moslashuvchan va faol bo'g'ini sifatida tahlil qilinadi. Ular bandlik darajasini oshirish, yangi daromad manbalarini shakllantirish hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois kichik biznes subyektlari faoliyatini ilmiy asosda baholash iqtisodiy siyosatni shakllantirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: baholash konsepsiyasi, baholash mezonlari, kichik biznes, moliyaviy natijalar, boshqaruv sifati, innovatsion faollik, raqobatbardoshlik, institutsional muhit.

Abstract. This article analyzes small business entities as the most flexible and active component of the economic system under market economy conditions. They play a significant role in increasing employment, generating new sources of income, and supporting regional socio-economic development. Therefore, a scientific assessment of small business performance is of particular importance in the formulation of economic policy and the adoption of effective management decisions.

Keywords: assessment concept, assessment criteria, small business, financial results, management quality, innovative activity, competitiveness, institutional environment.

Аннотация. В данной статье малые бизнес-субъекты рассматриваются как наиболее гибкое и активное звено экономической системы в условиях рыночной экономики. Они играют важную роль в повышении уровня занятости, формировании новых источников дохода и поддержке регионального социально-экономического развития. В этой связи научная оценка деятельности малого бизнеса приобретает особое значение при формировании экономической политики и принятии управленческих решений.

Ключевые слова: концепция оценки, критерии оценки, малый бизнес, финансовые результаты, качество управления, инновационная активность, конкурентоспособность, институциональная среда.

KIRISH

So'nggi yillar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes subyektlari iqtisodiy o'zgarishlarga tez moslasha oladigan sektor hisoblanadi. Masalan, 2020-yilda pandemiya sharoitida talabning qisqarishi va ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar ko'plab korxonalar faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Biroq kichik biznes vakillari xizmat ko'rsatishning yangi shakllariga o'tish, onlayn savdo platformalaridan foydalanish, ichki bozor resurslarini kengroq ishga solish orqali iqtisodiy faollikni ma'lum darajada saqlab qoldi. Ushbu davr kichik biznes uchun moslashuvchanlik va omon qolish strategiyalarini shakllantirgan muhim bosqich bo'ldi.



2025-yilga kelib esa mazkur sektorda sifat jihatidan yangi bosqich kuzatildi. Iqtisodiy muhitning barqarorlashuvi, tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritish tartiblarining soddalashuvi, soliq yukining maqbullashuvi hamda moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining kengayishi kichik biznesning jadal rivojlanishiga zamin yaratdi. Natijada yangi korxonalar soni ortdi, xizmatlar sohasi kengaydi, mahalliy va tashqi bozorlar uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish faollashdi. Eng muhimi, kichik biznes subyektlari eksport jarayonlarida faolroq ishtirok eta boshladi, bu esa ularning moliyaviy barqarorligini oshirib, risklarni diversifikatsiya qilish imkonini berdi.

2020-2025-yillarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli mazkur davr mobaynida sezilarli darajada o'zgardi. Agar 2020-yilda asosiy e'tibor mavjud korxonalarni saqlab qolish, ishlab chiqarish jarayonlarini moslashtirish va qisqa muddatli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lsa, 2025-yilda rivojlanishning yangi drayverlari – investitsion faollik, innovatsion yondashuvlar va tashqi bozorga chiqish ustuvor yo'nalishlarga aylandi. Bu holat baholash tizimida ham tub o'zgarishlarni talab etadi.

Endilikda kichik biznes subyektlari faoliyatini baholash faqat sof foyda, rentabellik yoki aylanma mablag'lar hajmi kabi ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmaydi. Baholash jarayonida bandlikka qo'shilgan hissa, hududiy rivojlanishga ta'sir, innovatsion faoliyat darajasi, raqamli texnologiyalardan foydalanish, eksport salohiyati hamda boshqaruv sifati kabi mezonlar ham muhim o'rin egallaydi. Aynan ushbu ko'rsatkichlar majmuasi kichik biznesni iqtisodiyotning barqaror o'sishida strategik ahamiyatga ega sektor sifatida baholashga asos yaratadi.

Umuman olganda, kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashning nazariy asoslari ko'p qirrali, tizimli va dinamik yondashuvni talab etadi. Kompleks baholash orqali nafaqat korxonaning joriy holati, balki uning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari, bozorga moslashish qobiliyati va iqtisodiyotdagi tutgan o'rni ham aniqlanadi. Shu bois mazkur yo'nalish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda.

Kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini baholashda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari alohida o'rin egallaydi. So'nggi yillarda respublikamizda olib borilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida kichik biznes faoliyatini rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini oshirish hamda tashqi bozorlarga chiqishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli¹ Farmonida 2026-yilga borib mamlakat eksport hajmini sezilarli darajada oshirish, xalqaro talablar darajasiga mos standartlarni joriy etish, eksportchi tadbirkorlik subyektlariga tashkiliy va moliyaviy ko'mak ko'rsatish asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.

Mazkur Farmonda eksport hajmini 2026-yilda 30 milliard AQSh dollariga yetkazish, tashqi bozor talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish, mashhur brendlarni yaratish, logistika infratuzilmasini takomillashtirish hamda kichik biznes subyektlarini eksport faoliyatiga keng jalb etish muhim yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan.

Bu esa kichik biznes faoliyatini baholashda faqat ichki bozordagi natijalar bilangina cheklanib qolmasdan, balki quyidagi mezonlarni ham inobatga olish zarurligini ko'rsatadi:

- eksport ulushi;
- tashqi bozorlardagi raqobatbardoshlik;
- xalqaro standartlarga moslashuv darajasi;
- davlat tomonidan yaratilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish darajasi.

Shuningdek, kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar baholash tizimining konseptual asoslarini yanada kengaytirmoqda. Jumladan, Prezident va Hukumat qarorlarida tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, kredit va kafolat mexanizmlarini rivojlantirish, eksportga yo'naltirilgan korxonalarga subsidiya va grantlar ajratish kabi chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan.

Natijada kichik biznes subyektlari faoliyatini baholash nafaqat iqtisodiy natijalarni aniqlash vositasi, balki davlat siyosatining amalda qay darajada samarali amalga oshirilayotganini aks ettiruvchi muhim indikator sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-sonli² Farmonida kichik va o'rta biznesning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy o'sishga turtki beruvchi yangi biznes tashabbuslarini amalga oshirishga ko'maklashish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan yangi tashqi bozor segmentlariga chiqishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2025–2030-yillarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyasining asosiy ko'rsatkichlari belgilab berilgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/-7444738>



2030-yilga borib yalpi ichki mahsulot hajmini 200 milliard AQSh dollariga yetkazish, kambag'allik darajasini 5 foizdan pastga tushirish hamda O'zbekistonni daromadi o'rta darajadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kiritish bo'yicha barcha imkoniyatlar mavjud. Ushbu ustuvor maqsadlarga erishishda barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bo'lgan kichik va o'rta biznes uchun har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning yashovchanligini oshirish hamda yiriklashuvini rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda 283,9 ming nafar yakka tartibdagi tadbirkorlar va 905,8 mingta kichik va o'rta korxonalar faoliyat yuritmoqda. Mazkur sohada 10,5 million nafar aholi band bo'lib, 2024-yil yakunlariga ko'ra yalpi ichki mahsulotning 54,3 foizi, sanoat mahsulotlarining 32,4 foizi hamda eksport hajmining 33,3 foizi kichik va o'rta biznes subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashning nazariy asoslarini shakllantirish va ularni ustuvor rivojlantirishdan iborat.

Mahalliy olimlarimiz M.P. Boltaboyev va M.S. Qosimovalarning fikrlariga ko'ra, kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar davlatga bog'liq bo'lmagan holda, ya'ni katta kapital mablag'larsiz, o'zlari ish o'rinlarini yaratishlari, hozirgi davrda mavjud bo'lgan vaqtinchalik tovarlar tanqisligini kamaytirishlari va hatto uni butunlay bartaraf etishlari mumkin. Shuningdek, kichik korxonalar texnologik yangiliklarni joriy etishda ham g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan³.

Kichik biznes subyektlari faoliyati bilan shug'ullanuvchilar bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti sharoitida sanoatning yetakchi sohalarini yangi texnologiyalarga o'tkazishda tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Ularning faoliyati yangi g'oyalarni ilgari surish, ishlab chiqarishni takomillashtirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali ish jarayonini ta'minlovchi tizimda asosiy omillarni hisobga olish zarurligini anglatadi.

Iqtisodchi G.U. Ziyadullayev tadqiqotlarida davlat strategiyasi bilan kichik biznes faoliyatini baholashning nazariy asoslari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik alohida ta'kidlanadi. U kichik biznesni baholash jarayonida davlat tomonidan belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar, jumladan bandlik, innovatsion faollik va eksport salohiyatini nazariy konsepsiyaga integratsiya qilish muhimligini ko'rsatib o'tadi⁴.

Yangi O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining rivojlanishiga oid tadqiqotlar ko'p yillik ilmiy izlanishlar va amaliy tajribalar natijasi sifatida o'rganilmoqda. Kichik biznes rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha mavjud ilmiy yondashuvlar va tadqiqotlar tahlil qilinmoqda. A. Xoskinning fikricha, "qarorni mustaqil qabul qilib, ishni o'z hisobidan olib boruvchi, biznesni boshqarish bilan shaxsan shug'ullanuvchi hamda zarur vositalar bilan ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga oluvchi shaxs yakka tartibdagi tadbirkor hisoblanadi", degan ta'rif berilgan⁵. Ushbu tarifda tadbirkorning biznes jarayonida qarorlarni shaxsan qabul qilishi asosida boshqaruvni tashkil etishiga alohida urg'u berilgan.

V.I. Vidyapin rahbarligida G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiy akademiyasi olimlari tomonidan nashr etilgan "Общая экономическая теория" darsligida tadbirkorlik faoliyati "o'zining moddiy manfaatlarini amalga oshirish pirovard maqsadida ijtimoiy ehtiyojlarni qondiruvchi moddiy ne'matlar va xizmatlarni yaratish uchun ishlab chiqarish omillarini (resurslarni) tashkil etish va birlashtirish jarayoni" sifatida talqin etiladi⁶.

Shu bois kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashda faqat foyda ko'rsatkichlari bilan cheklanib qolmasdan, balki innovatsion faollik ham asosiy mezon sifatida qaralishi lozim. J. Shumpeter ta'kidlaganidek, tadbirkorlik iqtisodiyotning "yaratuvchi buzilish" mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashda ularning innovatsion tashabbuslari va texnologik yangiliklarni joriy etish qobiliyati alohida ko'rsatkich sifatida e'tirof etiladi⁷.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy ma'lumotlar xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, rasmiy normativ-huquqiy hujjatlar hamda yetakchi xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari asosida to'plandi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va tizimli yondashuv usullari orqali tahlil qilinib, gudvill va xariddan kelgan foydaning buxgalteriya hisobida aks ettirilishining ilmiy-amaliy jihatlari baholandi.

3 M.P.Boltabayev, M.S.Qosimova va boshqalar "Kichik biznes va tadbirkorlik". O'quv qo'llanma. T.: "Noshir"-2011. 38-b

4 Ziyadullayev G.U. "Yangi O'zbekistonda kichik tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari", *Innovations in Science and Technologies*, Issue 3, 2025.

5 Хоскин А. Курс предпринимательства. - М.:1993. - С. 23.

6 V.I.Vidyapin Общая экономическая теория. Учебник. РЭА.им.Г.В.Плеханова,-М.:«ПРОМО-МЕДИА, 1995.-С.165.

7 Schumpeter, J. (1934). *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.



TAHLIL VA NATIJALAR

Baholash natijalari ko'p jihatdan ma'lumotlar sifati va ularni yig'ish davriyligiga bog'liq hisoblanadi. Kichik biznes amaliyotida ko'pincha muammo shundaki, ko'rsatkichlar mavjud bo'lsa-da, ular turli tizimlarda tarqoq holda saqlanadi yoki muntazam yig'ilmaydi. Shu sababli baholash indikatorlarini aniq manbalar va davriylik bilan bog'lash zarur bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. Baholash indikatorlari bo'yicha ma'lumot manbalari va yig'ish davriyligi⁸

Indikator guruhi	Asosiy manba	Davriylik	Ishonchlilik bo'yicha izoh
Moliyaviy	Buxgalteriya hisobotlari, bank ko'chirmalari	Oylik, choraklik	Rasmiy hujjat; biroq pul oqimi bo'yicha qo'shimcha tafsilot talab etiladi
Operatsion	Ishlab chiqarish jurnallari, ombor hisobi	Oylik	Ichki ma'lumot; standartlashtirish zarur
Bozor	Sotuv reyestri, shartnomalar	Haftalik, oylik	Talab tebranishini tez aks ettiradi; tozalash talab qilinadi
Ijtimoiy	Kadrlar hisobi, mehnat shartnomalari	Choraklik	Bandlikni aks ettiradi; norasmiy bandlik mavjud bo'lsa, to'liq bo'lmasligi mumkin
Innovatsion	Modernizatsiya rejalari, investitsiya loyihalari	Yarim yillik	Sifat ko'rsatkichlari ko'p; ekspert bahosi qo'shiladi
Eksport	Bojxona hujjatlari, kontraktlar, sertifikatlar	Oylik, choraklik	Tashqi tomondan tasdiqlanadigan ma'lumot; taqqoslashga qulay
Raqamli	IT tizimlari loglari, onlayn savdo hisobi	Oylik	Raqamli izlar mavjud; indikatorlarni to'g'ri tanlash muhim
Risk	Qarzdorlik reyestri, likvidlik hisobotlari	Oylik	Tezkor monitoring talab etiladi; erta ogohlantirish uchun mos

Baholashni "qog'ozda qolib ketadigan" jarayondan chiqarib, uni real boshqaruv tizimiga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Indikatorlar manbasi aniq bo'lsa, baholash jarayoni takrorlanadi va tekshiriladi. Davriylik esa baholashning dinamik xususiyatini ta'minlaydi. Masalan, bozor indikatorlari haftalik kuzatilsa, talabning pasayishi erta aniqlanishi mumkin; risk indikatorlari oylik nazorat qilinsa, qarzdorlik inqirozining oldi olinadi.

Baholashning nazariy asoslaridan kelib chiqib, kichik biznes subyektlarining rivojlanishini "yetuklik bosqichlari" orqali tasvirlash mumkin. Ushbu yondashuv baholash natijalarini faqat raqamlar majmui sifatida emas, balki korxonaning qaysi rivojlanish bosqichida ekanini ko'rsatuvchi diagnostik vosita sifatida talqin qilishga yordam beradi (1-rasm).

↑ Rivojlanish yo'nalishi (korxona yuqoriga ko'tariladi)
5-bosqich: Barqaror o'sish va eksport
4-bosqich: Raqamli boshqaruv va innovatsiya
3-bosqich: Bozorni kengaytirish (segment, kanal)
2-bosqich: Operatsion intizom va xarajatlar nazorati
1-bosqich: Boshlang'ich barqarorlik (likvidlikni saqlash)

1-rasm. Kichik biznesning baholashga asoslangan "yetuklik zinapoyasi"⁹


Mazkur yondashuv baholash natijalarini "bosqich" tushunchasi bilan boyitadi. 2020-yil sharoitida ko'plab kichik korxonalar 1-2-bosqichlarda bo'lgan bo'lib, asosiy e'tibor likvidlikni saqlash, xarajatlarni minimallashtirish va risklarni kamaytirishga qaratilgan. 2025-yilga kelib esa o'sish imkoniyatlarining kengayishi natijasida 3-5-bosqich indikatorlari, ya'ni bozorni kengaytirish, raqamlashtirish, innovatsiya va eksport ustuvor ahamiyat kasb etdi.

8 Muallif ishlanmasi

9 Muallif ishlanmasi

Ushbu “yetuklik zinapoyasi” korxona uchun ikki tomonlama foyda beradi: birinchidan, qaysi ko’rsatkichlar korxonani “keyingi bosqich”ga olib chiqishini aniqlash imkonini beradi; ikkinchidan, baholash mezonlarini ustuvorlik darajasi bo’yicha tartiblashga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur model tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqich nomlarini moslashtirish imkonini ham yaratadi.

Baholash nazariyasida natijani faqat “foйда” ko’rsatkichi bilan ifodalash ko’pincha tor yondashuvga olib keladi. Shu sababli baholashni natijalar zanjiri — input–process–output–outcome modeli orqali tushuntirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu sxema kichik biznes faoliyatining ichki jarayonlari bilan yakuniy natijalari o’rtasidagi sabab–oqibat bog’liqligini ochib beradi (2-rasm).



2-rasm. Baholashning natija zanjiri

Input → Process → Output → Outcome¹⁰

Mazkur model baholashning nazariy mohiyatini “zanjir” orqali ochib beradi. Input bosqichi resurslarni anglatadi: kichik biznes subyektlarida mehnat va kapital resurslari cheklangan bo’lgani sababli, ularni qanday tashkil etish va taqsimlash natijaga kuchli ta’sir ko’rsatadi. Process bosqichi boshqaruv va operatsion jarayonlarni qamrab olib, baholashning markaziy nuqtasi hisoblanadi, chunki aynan ushbu bosqichda resurslar iqtisodiy qiymatga aylanadi. Output bosqichi natijani qisqa muddatli ko’rsatkichlar orqali ifodalaydi (sotuv, daromad), Outcome esa uzoq muddatli ta’sirni aks ettiradi (barqaror o’sish, bandlik, eksport va innovatsiya).

Kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashning nazariy asoslarini tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, baholash masalasi bozor iqtisodiyoti sharoitida oddiy hisob-kitob yoki hisobot ko’rsatkichlarini jamlash bilan cheklanib qolmaydi. U, avvalo, kichik biznesning iqtisodiyotdagi funksional rolini to’g’ri anglash va ushbu rolni aks ettira oladigan ko’p mezonli yondashuvni shakllantirishni talab etadi. Kichik biznesning moslashuvchanligi, resurslardan tejamkor foydalanishi, bandlik yaratishi, bozor raqobatini kuchaytirishi hamda innovatsion faollikka turtki berishi uning faoliyatini baholashda “faqat moliyaviy natija” mezonini yetarli emasligini asoslaydi. Demak, baholashning nazariy mazmuni korxona natijalarini bir yoqlama talqin qilishdan voz kechib, ularni iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jihatlarining o’zaro bog’liqligida ko’rib chiqishga yo’naltiriladi.

Bundan tashqari, baholashni ikki asosiy yo’nalishda talqin qilish mumkinligi aniqlanadi. Birinchisi — baholashni korxonaning joriy holatini aniqlovchi “diagnostik” jarayon sifatida ko’rish; ikkinchisi — baholashni kelgusidagi rivojlanish, raqobatbardoshlik va barqarorlikni ta’minlaydigan “strategik boshqaruv instrumenti” sifatida talqin etishdir. Amaliy jihatdan kichik biznes subyektlari uchun aynan ikkinchi yondashuv muhim hisoblanadi, chunki ular ko’pincha bozor tebranishlari, resurslarning cheklanganligi va raqobat bosimi sharoitida faoliyat yuritadi. Shu sababli baholash natijalari korxona rahbariyatiga “qaysi yo’nalishni kuchaytirish zarur?”, “qaysi risklar ustuvor?”, “qaysi ko’rsatkichlar o’sish bosqichiga olib chiqadi?” kabi savollarga aniq va asosli javob bera oladigan darajada shakllantirilishi lozim.

O’tkazilgan nazariy umumlashtirishlar baholashning ko’p mezonli tuzilmasini quyidagi asosiy bloklar orqali izohlash mumkinligini asoslaydi:

- moliyaviy samaradorlik;
- operatsion (jarayon) samaradorlik;
- bozor samaradorligi;
- ijtimoiy samaradorlik;
- innovatsion faollik;
- raqamlashtirish;
- eksport salohiyati;
- risklarni boshqarish.

10 Muallif ishlanmasi



Ushbu bloklar o'zaro bir-birini to'ldiradi va baholash natijasini yaxlit ko'rinishda ifodalaydi. Masalan, moliyaviy natijalar yuqori bo'lgan holda bozor ko'rsatkichlari sust bo'lsa, korxonaning sotuv kanallari yoki mijozlar bilan ishlash tizimini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga keladi. Yoki foyda barqaror bo'lsa-da, innovatsion va raqamli ko'rsatkichlar past darajada qolsa, qisqa muddatda ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsa ham, uzoq muddatli raqobatbardoshlik xavf ostida qolishi mumkin. Shunday qilib, baholash bloklari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni aniqlash baholashning nazariy to'liqligi va amaliy ahamiyatini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nazariy xulosalardan yana biri shundan iboratki, baholash mezonlari va indikatorlar tizimi "statik" emas, balki iqtisodiy sharoit va davr talablariga mos ravishda "dinamik" tarzda yangilanib borishi zarur. 2020–2025-yillar tajribasini umumiy mantiqiy solishtirish shuni ko'rsatadiki, 2020-yilda baholash jarayonida barqarorlik, likvidlik, xarajatlarni minimallashtirish hamda risklarni kamaytirish kabi ko'rsatkichlar ustuvor bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda o'sish, diversifikatsiya, raqamlashtirish, innovatsiya va eksport ko'rsatkichlarining ahamiyati sezilarli darajada oshgan.

Mazkur holat baholash metodologiyasida indikatorlar og'irligini, ya'ni ularning ahamiyat koeffitsiyentlarini iqtisodiy sharoitga mos ravishda qayta belgilash zarurligini nazariy jihatdan asoslaydi. Ya'ni baholash jarayoni bir xil ko'rsatkichlarni barcha davrlarda bir xil vaznda qo'llashga asoslanmasdan, balki muayyan sharoit va ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqqan holda doimiy ravishda takomillashtirib borilishi lozim bo'lgan moslashuvchan tizim sifatida qaralishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boltaboyev M.P., Qosimova M.S. va boshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. — Toshkent: "Noshir", 2011. — 38-bet.
2. Ziyadullayev G.U. Yangi O'zbekistonda kichik tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari. — Innovations in Science and Technologies, Issue 3, 2025.
3. Хоскин А. Курс предпринимательства. — М.: 1993. — С. 23.
4. Vidyapin V.I. Общая экономическая теория. Учебник. РЭА им. Г.В. Плеханова. — М.: «ПРОМО-МЕДИА», 1995. — С. 165.
5. Schumpeter J. The Theory of Economic Development. — Harvard University Press, 1934.
6. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. — New York: Harper & Row, 1985.
7. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard—Measures that Drive Performance. — Harvard Business Review, 70(1), 1992, pp. 71–79.
8. Barney J. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage. — Journal of Management, 17(1), 1991, pp. 99–120.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100